

BAHOUDDIN NAQSHBAND MAJMUASIDAGI OBODONLASHTIRISH ISHLARI

Tag'iyev Alijon Abbos o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Bahouddin Naqshband ziyoratgohida amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlari to'g'risida ma'lumot beriladi. Unda saytning estetik jozibadorligini oshirish va tashrif buyuruvchilar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida manzarali daraxtlar ekish, mavsumiy gullardan foydalanish batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, gilos va uzumzorlar ekish hududning tabiiy go'zalligini yanada boyitish yo'li sifatida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. Bahouddin Naqshband majmuasi, chinni gujun, dekorativ daraxtlar, mavsumiy gullar, gilos daraxtlari.

ABSTRACT

This article provides information about the landscaping and beautification efforts carried out at the Bahouddin Naqshband pilgrimage complex uring the years of independence. It details the planting of decorative trees, and the use of seasonal flowers to enhance the aesthetic appeal of the site and create a comfortable environment for visitors. Additionally, the planting of cherry trees and grapevines is highlighted as a way to further enrich the natural beauty of the area

Keywords: Bahauddin Naqshbandi Complex, porcelain vase, decorative trees, seasonal flowers, cherry trees.

KIRISH

Naqshbandiya tariqatining asoschisi, mashhur avliyo Muhammad ibn Muhammad Bahouddin Naqshband Buxoriy (1318-1389) Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Bu qishloq ul zot sharafiga keyinchalik Qasri Orifon deb atalgan. Bu qishloq Buxorodan bir farsang masofada joylashgan bo'lib, hozirgi Kogon tumani tarkibiga kiradi. Tarixiy manbalarda u payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) avlodlariga mansub sayyidzodalardan ekanligi qayd etilgan. Uning otasi mato to'quvchi hamda unga o'yma naqsh soluvchi (naqshband) bo'lgan. Bahouddin (dinning nuri, shu'las, ravshanligi) unga keyinchalik berilgan faxriy nomdir. Naqshband (kimxobga naqsh soluvchi, gul beruvchi) uning otasi va o'zining kasb-hunari bo'lgani uchun berilgan unvon. Bundan tashqari, bu so'z Alloh kalomini dilga naqsh etish ma'nosida ham qo'llaniladi. U xalq orasida Balogardon, ya'ni qudrati bilan balo-qazoni daf qiluvchi unvoni bilan ham mashhur. O'zlarining asl ismi Muhammad bo'lgan. Bundan tashqari, ul zot xalq o'rtasida Xoja Bahouddin,

Bahouddin Balogardon, Shohi Naqshband, Xojai Buzruk nomlari bilan ham mashhurdir. Bu nomlar ichida eng mashhuri Bahouddin Naqshband hisoblanadi. Bahouddin Naqshband majmuasining shakllanishi uning vafotidan so'ng boshlandi. Majmuani obod qilish ishlariga Buxoro xonlari va amirlari katta-katta mablag'lar ajratganlar. Jumladan shayboniy hukmdor Abdulazizxon (1540-1551) davrida hazrat qabri atrofi hazira bilan o'raldi. Majmuadagi eng katta inshoot Abdulazizxon xonaqohi bunyod etildi. Keyinchalik shayboniy va ashtarxoniy hukmdorlar hazrat qabri yaqunida o'zlari uchun daxmalar bunyod etib, Daxmayi Shohon (shohlar daxmasi)ni bunyod etadilar. Mang'itlardan bo'lgan Buxoro amiri Nasrulloxon (1826-1860) ziyoratchilarga qulay bo'lishi uchun Buxoroning Mozori Sharif darvozasidan majmuagacha tosh yo'l bunyod etadi. Sobiq sho'ro davrida majmuaga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Mustaqillik sharofati bilan majmua ko'rinishi tubdan o'zgardi. Majmua hududidagi binolar qayta ta'mirlandi, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ushbu maqolani yozish davomida men kuzatish, qiyosiy tahlil va mustaqillik yillarida qabul qilingan qonun va qarorlarni qiyosiyb tahlil asosida o'rganib chiqildi. Maqolani yozish davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentlarining qaror va farmoyishlarini, Bahouddin Naqshband majmuasi raisi Farmon Mavlonovich Aminovning ko'rsatmalaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sobiq sovet ittifoqi davrida yurtimizdagi barcha qadamjolar qatorida Hazrat Bahouddin Naqshband ziyoratgohi ham yarim vayrona holiga kelgan edi. Istiqlol sharofati bilan bu tabarruk maskanda obodonlashtirish uchun sa'y-harakatlar boshlandi, qadamjodagi masjid namozxonlar ixtiyoriga berildi. 1993 yilda respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi xalqaro miqyosida keng nishonlandi. Shu munosabat bilan ziyoratgohda katta ko'lamdagi obodonlashtirish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Buxoro shahridan bu qadamjogacha boradigan yo'l jahon andozasiga mos qilib qurildi. 2003 yilda Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarining 685 yillik yubileyiga tayyorgarlik jarayonida davlatimiz rahbari ko'rsatmasi asosida ushbu alloma dahmasi, shuningdek, Abdulazizxon xonaqohi, Dahmai Shohon (Shohlar xilxonasi), Muzaffarxon va Abdulhakim Qushbegi masjidlari, hovuz, quduq, minora va boshqa inshootlar ta'mirlandi, eski ayvon poydevori ustiga 15 ustundan iborat va milliy naqshlar bilan ziynatlangan ayvon barpo etildi. Bahouddin Naqshband majmuasi — O'zbekistonning muqaddas ziyoratgohlaridan biri bo'lib, har yili minglab mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyuradi. Bu joyda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari majmuaning tarixiy va diniy ahamiyatini saqlab

qolgan holda, ziyoratchilarga qulaylik yaratishga qaratilgan. Obodonlashtirish ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi. Yashil hududlarni kengaytirish. Majmua atrofida yangi daraxt va gulzorlar ekilib, landshaft dizayni yangilandi. Majmuaning umumiy maydoni 20,6 gektar bo'lib, shundan 13 gektar maydonda bog' mavjud bo'lib unda 5 turdagi meva daraxtlari (olma, gilos, uzum, shaftoli kabi daraxtlar) parvarish qilinmoqda. Shuningdek hududda mikroiklim yaratish maqsadida 10 turdan ziyod ko'p yillik manzarali daraxtlar, 4 000 dan ortiq turli ko'chatlar, 100 mingdan ziyod mavsumiy gullar ekilgan. Majmuada obodonlashtirish uchun jami 50 ta xodim faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari 2003-yil Bahouddin Naqshband va ul zotning validasi Bibi Orifa qadamjolari Qasri Orifon bog'i orqali birlashtirildi. Ikki majmuani bog'lab turuvchi 900 metrli zamonaviy yo'lak barpo etildi. Yo'lak ikki tomonidagi ko'rkam intensiv bog' ziyoratgohga tashrif buyurishchilarga xushnudlik bag'ishlab, hazrat qadamjosining fayzini bir butun etmoqda. Bog' hududining 3 gektarini gilozor, qolgan 15 gektarini shaftolizorlar tashkil etadi. Bog'da asosan, Gretsiya davlatidan keltirilgan shaftolining 210 dona "Sveet dream", 389 dona "Big bang", 281 dona "Dream", 884 dona "SVEET DREAM", 285 ta Gid Gold, 933 ta "GID GOLD", 600 dona "Anjir Ufa", 353 dona "Fantaziya", 1000 dona "Gold" navlari parvarish qilinadi. Jamisini hisoblaganda bog'da ko'chatlar soni 5000 dan oshib ketadi. 2014-yilda o'tqazila boshlangan nihollar 2-3 yilda hosilga kirib, bugun serhosil meva bermoqda. Bog' hududida xizmat qiluvchi 15 ga yaqin tajribali sohibkor bog'bonlar Samarqandning Ishtixon tumanida ko'chatlarni yangi texnologiya asosida o'tqazish va intensiv usulda tomchilab sug'orish bo'yicha tajriba almashib qaytishdi. Shaftolilar anjir, limon va boshqa mevalar bilan payvand qilingan. Bog' mutaxassislarning ma'lumoticha, payvandlash daraxt shoxasiga emas, balki ko'chatning popuk ildizi orqali bajarilar ekan. May oyidan Samarqand gilos navlari hosilga kiradigan bo'lsa, iyun oyidan oktabrga qadar shaftolining yuqorida sanalgan turlari birin ketin meva bera boshlaydi. Demak, Qasri Orifonda 6 oy mobaynida meva pishiqchiligi davom etadi. Shaftolilar kosa shakliday bo'lib, har birining og'irligi 900-950 grammni tashkil etadi. Yillik hosil sermahsul bo'lib, eksportga yo'naltirilmoqda. 2018 yili bog'da 15,5 tonna hosilning yetishtirilishi zaxmatkash bog'bonlarimizning mirishkorligidan dalolat beradi[**1.97-98**]. Bizga ma'lumki shaftoli daraxti 5-7 yildan so'ng o'z hosildorlik qobiliyatini yo'qotadi. 2024-yil oxirida majmua rahbariyati tomonidan bugungi kun qonunchiligiga hamohang ravishda ekologik xulosaga tayanib Qasri Orifon bog'idagi shaftoli daraxtlari o'rniga 2,5 ming tup "SKINA" va "REGINA" navli gilolar ekildi. Bundan tashqari Bibi Orifa majmuasida tokning "TOIFI va "HUSAYNI" navidan 160 tub ko'chat o'tqazildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 27 maydagi qaroriga

muvofig Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi tashkil etildi [2]. Shu majmua tarkibiga kiruvchi ikki qavatli markaz binosi, keyinchalik milliy uslubda qurilgan anjumanlar zali foydalanishga topshirildi. Majmuaga kiriladigan Toqi Dilovar va Bobus Salom asl holiga keltirildi, Sharq me'morchiligi an'analari asosida Bobul Islom (2003) darvozasi bunyod etildi. 2017 yil 11 iyulida davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Abduxoliq G'ijduvoniylar tavalludining 915 yilligini va Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishda bu xojagon-naqshbandiya tariqati asoschilari ziyoratgohlarini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va ularning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yangi vazifalar belgilandi [3]. "Vaqf" xayriya jamoat fondi rahbari I. Xalilov joriy 2019 yil 21 fevral kuni Buxoro viloyati Kogon tumanidagi "Bahouddin Naqshband" majmuasiga tashrif buyurib, majmuada olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan tanishdi. Hozirgi kunda "Bahouddin Naqshband" majmuasiga tashrif buyuruvchi mahalliy ziyoratchilarga qulayliklar yaratish maqsadida "Vaqf" xayriya jamoat fondi bilan hamkorlikda har biri 40 kishiga mo'ljallangan 8 ta zamonaviy oshxona, 1 ta qushxona, har biri 6 erkaklar va 6 ta ayollar uchun alohida hojatxonalar hamda 16 ta do'kon hunarmandlar rastalari barpo etilmoqda. Fond rahbari I. Xalilov "Bahouddin Naqshband" markazi Xaitov Karim Istamovich bilan uchrashib, majmuada amalga oshirilayotgan obodonlashtirish, qurilish va ta'mirlash ishlarini yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflarini berdi [4]. Davlatimiz rahbarining 2023 yil 10 avgustida Buxoro viloyatiga tashrifi davomida Bahouddin Naqshband majmuasi atrofida rejalashtirilayotgan qurilish-ta'mirlash loyihasi ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, Bahouddin Naqshband maqbarasiga Toqi miyona darvozasidan boruvchi tarixiy yo'lakni tiklash, Doniyolbiy madrasasini ta'mirlash, tahoratxona va muzey barpo etish loyihalar bilan davlatimiz rahbari tanishtirildi. Davlatimiz rahbari ziyorat turizmi uchun sharoitlarni kengaytirish, xorijdan Buxoroga to'g'ridan-to'g'ri qatnovlar va mehmonxona tashkil etish, qabristonni obodonlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Yurtboshimizning takliflaridan so'ng ziyoratgohda keng bunyodkorlik ishlari boshlandi. Madaniy meros agentligi buyurtmachiligida Toqi Miyona va Dilovar darvozalari, Doniyolbiy Otaliq madrasasining tarixiy ko'rinishini tiklash ishlari olib borildi. Ziyoratgoh atrofi devorlari tubdan yangilandi, majmua ichkarisidagi yo'laklar to'liq ta'mirlanib yangi ko'rinish kasb etdi. Mazkur majmua qurilishda milliylik va tarixiylikni saqlab qolishga alog'ida urg'u berilmoqda. Bino tashqi ko'rinishidan estetik go'zallik va zamonaviy arxitekturaning mukammal namunasi bo'lib, qulaylik va shinamlik jihatdan esa yurtimiz nomiga munosib bo'lishi kerak. Aynan shu tamoyil majmuaning shiori. Majmua hududida 100 nafar ziyoratchiga mo'ljallangan yangi

tahoratchona barpo etildi. Bahouddin Naqshband dahmalariga olib boradigan yo'laklar va Dahmai Shohon devorlari to'liq ta'mirlandi. Shuningdek ziyoratgoh hududiga kiradigan milliy uslubda yangi darvoza qurilib ziyoratgohga boradigan yo'llar to'liq ko'kalamzolashtirilmoqda. Majmua atrofida avtomobillar to'xtash joylari ham qurildi. Majmua hududi obodonlashtirish uchun Toqi Miyona darvozasidan Naqshband qabriga boradigan yo'lak, darvoza atroflari va avtoturargohlarda jami ellikta chinni gujun daraxtlari ekildi. 2023-yilda majmua hududidagi gilozorning orqa tomonida hosildan qolgan daraxtlar o'rniga 100 tup anor ko'chatlari ekildi. Shuningdek majmua hududiga 100 tup manzarali tut (chappatut) ko'chatlari o'tqazildi.

Bundan tashqari, tarixiy majmua bo'ylab chinni gujun, sasna, mojevelnik (archa), qarag'ay, kiparis va shu kabi manzarali daraxtlar majmua ko'rkiga ko'rk bag'ishlab turibdi. Ularning soyasida dam olgan sayyoh yoki ziyoratchi kislorodga to'yinmasdan jilmaydi. Yo'laklar bo'ylab anqib turgan rayhonlar esa qadamjo tarovati o'zgacha fayz baxsh etmoqda. Ziyoratgohda keladigan har bir mehmon majmua tarixi bilan tanishi barobarida, bog' tarovatidan ham katta taassurotga ega bo'ladi. Intensiv daraxtzorlar va nodir daraxtlardan iborat bog'lar va me'morial majmua uyg'unlashib, yaxlit kompozitsiyani tashkil etadi. Uzoqdan ziyoratgoh bog' bag'ridagi sayrgoh yoki mo'jaz shaharcha bo'lib ko'rinadi. Chunki tarixiy ansambl umumiy ko'rinishda 34 gektarni tashkil etadi. Hech qayerda ko'karmaydigan noyob daraxtlar, donasi qariyb 1 kg og'irlikda hosil beradigan mevalarning ayni qadimiy qishloqda bo'lishi, balki Hazrat Bahouddin Naqshband karomati hosilasidir.

XULOSA

Xullas mustaqillik yillarida majmua qiyofasi tubdan o'zgardi. Majmua hududidagi tarixiy binolar to'liq ta'mirlandi. Majmuaning qadimiy Toqi Miyona darvozasi qayta tiklandi. Doniyolbiy madrasasi va maqbarasi to'liq qaytadan bunyod etildi. Ziyoratgoh atrofidagi yerlar obodonlashtirilib, chet el va mahalliy sayyohlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Toqi Miyonadan Bobi Salom darvozasigacha bo'lgan yo'lak qaytadan tiklanib ziyoratchilarning qadimiy yo'nalishi qayta tiklandi. Darvoza atroflaridagi hududlarda ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Bu obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'rayev N. Bobojonov Sh. Bahouddin Naqshband tarixiy-me'moriy majmuasi. Toshkent "Navro'z" nashriyoti. 2019 yil ____ - bet
2. <https://lex.uz/uz/docs/-302377?ONDATE2=22.02.2021&action=compare>

3. <https://president.uz/oz/lists/view/780>
4. <https://vaqf.uz/oz/news/view/136>
5. Navro'zova. G. Bahouddin Naqshband (risola) TOSHKENT "ABU MATBUOT-KONSALT". 2011 yil. 23-bet.
6. Yavmutov D. S., Yuldosheva B. M. ISSUES OF ASSESSMENT OF THE NATURAL RESOURCE POTENTIAL OF THE REGION FOR RECREATIONAL PURPOSES //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – С. 77-86.
7. Yuldosheva B. M. Somoniylar VA Qoraxoniylar Davrida Buxoro Shahar Madaniyatining Rivojlanishi Va Atrof-Muhitga Munosabat //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 3. – С. 1307-1313.
8. Юлдошева Б. М. ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – Т. 5. – С. 46-51.
9. Yuldosheva B. M., qizi Islomova S. J. IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 41. – С. 132-135.
10. Юлдошева Б. М. ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржонова Бухоро давлат университети докторанти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – Т. 5.
11. Mirjonovna Y. B. Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem? //Academicia Globe. – 2021. – Т. 2. – №. 01. – С. 10-17.
12. Ergashev J. Caravanserais and their importance on caravan routes //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 458. – С. 07002.